



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ANIQLASH VA ULARNI TARBIYALASH

Umarov Xusniddin Egamboevich

Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti katta o'qituvchisi

Qodirova Kamola Jahongir qizi

Tirkasheva Xumora Nurali qizi

*Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi
106_20-guruh talabalarini*

Annotatsiya: Ushbu maqola rivojlanib borayotgan yurtimizdagi Maktabgacha ta'lif muassasalari, maktab, akademik litsey, oliy ta'lif va shu bilan bir qatorda oliy ta'lifdan keying ta'lif o'quvchilar va talabalarning iqtidor va qobliyetlarini aniqlash shu jumladan ularning iste'dodlarini yuzaga chiqarishdan iboratdir. Ularning kelajakdag'i faoliyatlarini to'g'ri yo'naltirish shu jumladan Vatanimiz uchun yetuk kadr sifatida tarbiyalashdir. Muxtasar qilib aytganda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va tarbiyalashda ularning har bir harakatlarini to'g'ri yo'naltirish va qabul qilish, is'tedodli bolalarni aniqlash usullari, ularni tarbiyalash ko'rsatmasi haqida yoritildi.

Kalit so'zlar: O'quvchilar, pedagog, ta'lif, tarbiya, maktab, oliy ta'lif, iqtidor va is'tedod, qobliyat, bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy va salbiy omillar, jamoa va hokzo...

Kirish: O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, "Jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilamay, respublika fuqorolarining yangi avlodini tarbiyalamay, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirmay turib, farovon, qudratli demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyatini barpo etib bo'lmaydi". Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida O'zbekistonni dunyodagi eng raqobatbardosh mamlakat qatoriga qo'shish uchun yuqori sifatli ma'lumotga ega, sog'lig'i yaxshi va shu bilan bir qatorda mamlakatimiz farovonligi uchun mehnat qilayotgan yoshlarga katta ishonch bildirdi. Barchamizga ma'lumki, ta'lif va tarbiya masalasi doimo kun tartibida bo'lgan. Hozir zamon o'zgardi, talablar o'zgardi. Bugungi bola ertangi mamlakat kelajagidir. Muxtasar qilib aytganda, biz bo'lajak pedagoglarning asosiy vazifasi yuqori

darajadagi bilim va ijodkor o'quvchi va talabalarni tarbiyalash ekanligini unutmasligimiz

kerak. Mamlakatimizda ta'lif sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi yuksak tafakkurli, dunyoqarashi keng, etuk va raqobatdosh shaxsni shakllantirishdir [1].

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Asosiy qism: N.Ojegovning lug'atida iste'dod "tabiat tomonidan berilgan maxsus

qobiliyat" deb ta'riflangan. Ota-onalar, psixologlar va o'qituvchilar bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish darajasiga e'tibor berishlari kerak. O'quvchining qobiliyatini rivojlantirish uchun ko'proq tirishqoq, tinimsiz, irodali, qat'iyatlari, diqqatli va o'ziga talabchan bo'lismay kerak. Rus psixologlari iste'dodga quyidagicha ta'rif berishadi: «Iste'dod - bu ruhiyatning sistematik, umrbod xossasi. Bu odamlarning boshqa odamlar bilan taqqoslaganda bir yoki bir nechta

faoliyatda eng yuqori natijalarga erishish qobiliyatini belgilaydi. Atom tuzilishini vizual ravishda ajratish qiyin bo'lgani kabi, hanuzgacha o'z yo'llarini o'ylab topgan iqtidorli va iqtidorli talabalarni aniqlash juda mas'uliyatli.

Iste'dod

- bu ma'lum bir harakat asosida maxsus muvaffaqiyatga olib keladigan insoniyat

rivojlanishining yuqori darajasi. Iqtidorli bolalarni aniqlash - bu bola rivojlanishini tanlash bilan bog'liq bo'lgan uzoq jarayon. Talabaning iqtidorini aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalanamiz:

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqlashgan ta'limga berish yo'llari, shakllari va usullari, ularni fanlar bo'yicha o'tkaziladigan olimpiadalarga tayyorlash metodikasi.

Sinfdan tashqari o'tkaziladigan to`garaklar ham, dars singari quyidagi ta'limga va tarbiyaviy vazifalarni hal etishi kerak:

O'quvchilarga puxta bilim berish. Sinfdan tashqari olib boriladigan barcha to`garaklar o'quvchilarga puxta va hartaraflama bilim berishga qaratiladi, chunki hozirgi zamonda ilmiy texnika taraqqiyoti davrida sanoat korxonalarini, elektron hisoblash mashinalarini, sun'iy yo`ldoshlar orbeitiga chiqishi, yarim o'tkazgichli materiallar ishlab chiqarilishini takomillashtirish va qishloq xo`jalik sohalarida ishlash uchun yoshlar fizika va texnika yuzasidan puxta bilimga ega bo`lishi talab etiladi:

O'quvchilarning fan asoslarini o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini oshirish va ularning mustaqil bilim olishlari uchun zarur bo`ladigan ko`nikmalar bilan qurollantirishdan iborat.

O'quvchilarning qiziqishini vujudga keltirishda va ijobjiy tashabbuskorligini rivojlantirishda qiziqarli tajribalar, eksperimental masalalar ishlash, yangi mavzuni hayotga bog`lab o'tish, multimediyalar, elektron darsliklardan foydalanish, kinofilmarni namoyish qilish, qiziqarli kechalar uyushtirish, mustaqil o`qish uchun ilmiy va fantastik adabiyotlar tavsiya etish, tabiatga, ilmiy tadqiqot institutlariga va imkoniyatlariga bo`lsa GEStarga sayohat tashkil etish hamda o`zbek fizik olimlari bilan uchrashuvlar tashkil etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega:

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Bola iqtidorini

rivojlantirish , shakllantirish va uni iqtidorli shaxsga aylantira olish o‘qituvchining iqtidorli bola bilan ishlay olish xususiyatlariga bogliq.

Bular- o‘qituvchining motivatsion tayyorgarligi , qiziquvchanligi, o‘z ishiga sodiqligi, faol izlanuvchanligi, mehnatsevarligi, inson faoliyatining barcha sohalarini bilishi, iqtidorli bola psixologiyasini tushunishidir.

Yangiliklarga intilish, borliqning sir-sinoatlarini ochish, o‘rganishga intilish mакtab partasidayoq tug‘iladi. Shuning uchun aynan maktabdan fan va texnikaning turli sohalari bilan qiziquvchi bolalarni aniqlash, ularning orzu va rejalarini amalga oshirishiga, o‘quvchilarning imkoniyatlarini to‘laroq yoyishlariga, ularning fan va hayotdagi izlanishlar yo‘liga chiqishiga yordam berish juda muhimdir.

Pedagogik jaraenning asosiy vazifalari:

Ta’limiy- ilmiy bilim asoslarini o‘zlashtirish, amaliy faoliyat va o‘quv tarbiyaviy tajribaning motivatsion shakllanishi;

Tarbiyaviy- odamlar munosabatidagi ma’lum bir sifat, xususiyatning shakllanishi;

Rivojlantiruvchi- bolaning psixik jaraeni, xususiyati va sifatining shakllanishi hamda rivojlanishi;

Iqtidorli o‘quvchilar bilan bunday faoliyatni ma’lum bir yo’nalishlarda alohida amalga oshirish zarur.Masalan o‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ijodiy faoliyatini tashkil etishda mакtabning intelektual ,moddiy texnik vositalaridan ko‘proq foydalanish ,fan to‘garaklari ,sport va turli hil o‘quvchi o‘zi qiziqadigan yo’nalishlar bilan band qilishi zarur bo‘adi bunda sinf raxbarining o‘rni judda muhum ro‘l o‘ynaydi.O‘quvchi va talaba yoshlarga yaratilayotgan shart sharoitlar shu jumladan iqtidorli o‘quvchilarga yaratilayotgan shart sharoitlar haqida ko’rsatmalar berishi lozim.

Har bir iqtidorli o‘quvchi va talabani kashf qilishdan oldin u bilan individual ishlashi ,muamolari va o‘zining qiziqqan hobbylariga alohida e’tibor berish lozim.Iqtidorli o‘quvchilar o‘z o‘zidan paydo bo‘lmaydi ularga ma’lum bir turtki zarur hisoblanadi.O’sha turtki siz,men,yoki atrof –olam bo‘lishi mumkin.Har bir o‘quvchida iqtidor bor.Uni namoyon eta olishi ma’lum bir vaqt va mehnat talab etadi.

Iqtidorli o‘quvchi va talabalarni kashf qilishda ular turli hil shart sharoitlarda bo‘ladilar.Shuni ham nazardan chetta qoldirmasigimiz lozimki iqtidorli va iste’dodli o‘quvchilarni faqatgina o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yuqori ,a’lo baholarga o‘qiydigan o‘quvchilar orasidan izlamasligimiz lozim.Shunday o‘quvchilar borki ularning hulqi og’ishgan bo‘ladi ,fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi past ,qandaydir bir o‘zgacha atmosferada yashaydilar.Ular bilan psixologichiski va do’stona suhbatlashib iqtidorlarini aniqlashimiz ham mumkin,



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Xulosa: Iqtidor va qobliyatli o'quvchilarni kashf qilishda avvalo ularni to'g'ri yo'naltirishimiz zarur. Har doim ham a'luchi o'quvchilardan buyuk shaxs shakllanmaydilar.

Buyuk faylasuf, suxandon, notiqchilarning tarixiga nazar soladigan bo'lsak ularning ichlarida xulqi og'ishgan va hatto tayanch harakatida nuqsoni bo'lgan shaxslar ham mavjud. Ular ma'lum bir turki asosida o'z ustida yetarlicha balki undan ham ortiq ishlaganlar va bu yo'lda qanchadan qancha qiyinchiliklarni bosib o'tganlar. O'zlarining ustilarida tinmay mehnat qilib shakllanib –shakllanib shu cho'qqiga chiqqanlar va hattoki hozirgacha ularning nomlari butun dunyoga ovoza bo'lganlar. Chop etgan asarlari jahon adabiyot durdonalari safidan joy olgan, Nobel mukofotiga sazovar bo'lganlar. Hatto Alfred Nobel ham yoshligida malum bir qiyinchiliklarga uchragan boshqa o'quvchilarga nisbatan ajralib turgan. O'zining ilmiy izlanishlariga ko'ra turli hil elementlarni kashf etdi va Nobelni joriy qildi. Bundan tashqari boshqa shaxslarni ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu maqolam bilan men nima demoqchiman iqtidorli o'quvchilarni anniqlashda ularning o'zlashtirish ko'rsatgichiga qaralmaydi. Har bir o'quvchi oq qog'oz unga nimani bitsang amalda ham shu namoyon bo'ladi. Bu esa bo'lajak pedagoglarning qay darajada naqqoshligiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi o'quv qo'llanma Rasulova Zohida Guliston -2022y
2. Pedagogik mahorat R.D.Suleymanova Toshkent-2023
3. Internet manbalari arxiv-uz
4. M.Asqarova,S.Matchonov,M.Xudoyberganova ,F.Qodirova ,X.G'ulomova,A.Boymatova ,M.Bozorova ,O'.Ro'ziboyeva
5. Kichik yoshdag'i bolalar nutqini o'stirish. Toshkent "O'ZBEKISTON" 2001